

Axolini Ish Bilan Taminlashdagi Muammola Va Ularning Yechimi

Xudoyberdiyev Umar

I.F.N. SamISI datsenti

Ergashova Feruza

SamISI 2-kurs BI-422 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada aholi soning ko'payishi, mehnat salohiyatining oshishi, ish bilan band aholining iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha joylanishi, ishsizlik va uni kamaytirish yo'llari bayon qilingan.

Kalit So'zlar: aholi soni, mehnatga layoqatlilar, ish bilan band aholi, xodimlarning iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha joylanishi, ishsizlar, hududlar, ishsizlar sonini kamaytirish.

KIRISH.

O'zbekiston aholisi muntazam ravishda yildan-yilga yuqori suratlarda bilan ko'paymoqda. 1990-yil boshiga O'zbekiston aholisi 20,2 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil boshiga 36,900 mln kishini tashkil etmoqda. Demak aholi Respublikamustaqillik yillarida 10,700 mln kishiga ko'paygan.

Statistic malumotlarga qaraganda, hozirgi davrda aholining 30 % foiziga yaqini yoshlar, 10% foizini keksalar va nafaqahorlar, 60 % foizini esa mehnat qilish yoshidagilar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksiga asosan mehnat qilish yoshidagilar 16 yoshdan, ayollar- 55 yoshgacha, erkaklar esa 60yoshgacha belgilangan. Lekin bu yoshda bo'lib I-II guruh nogironligi bo'lgan kishilar mehnat qilishga layoqatsiz hisoblanadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida 16 yoshdan kichiklar hamda sog'ligi yaxshi nafaqaxo'rlar ham mehnat qilishmoqda, lekin ular juda ozchilikni tashkil etadi.

2022-yilda O'zbekistonda mehnat qilish yoshidagilar 19,4 miln kishini tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkich 23,2 mlnga yaqin kishini tashkil etmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bu raqam o'tgan yilgi davrga nisbatan taqqoslanganda 0,8 % ga oshgan

Hozirgi kunda mehnatga layoqatli aholi soni bo'yicha Samarqand viloyati yetakchilik qilmoqda – 4,2 mln kishini tashkil qiladi. Undan keying o'rinda Farg'ona viloyati ya'ni bu viloyatdagi mehnatga layoqatli aholi soni 4 mln kishidan ziyodni tashkil qiladi.

Ushbu ko'rsatkich qo'lgan guruhlar kesimida quydagicha ko'rishda tasvirlangan:

- ✓ Toshkent shahri –2,9 mln kishi;
- ✓ Qashqadaryo – 1,8 mln kishi;
- ✓ Andijon – 1,7 mln kishi;
- ✓ Toshkent – 1,6 mln kishi;
- ✓ Namangan – 1,5 mln kishi;

- ✓ Surxondaryo – 1,4 mln kishi;
- ✓ Qoraqalpog‘iston – 1 mln kishi;
- ✓ Buxoro – 1 mln kishi;
- ✓ Xorazm – 1 mln kishi;
- ✓ Jizzax – 788 ming kishi;
- ✓ Navoiy – 569 ming kishi;
- ✓ Sirdaryo – 486 ming kishshi.

Doimiy aholining ko‘pchiligi hozirgi kunda shaharlarda yashab kelmoqda. ammo shunga qaramasdan ish bilan band bo‘lgan aholining katta qismi qishloq va o‘rmon xo‘jaliklarida, sanoatda, qurilishda, savdo va talim sohalarida ishlamoqda.

shu ishlayotganlardan erkaklar qurilishda, tog‘-kon sanoati va transport soxalarida, ayollarning ko‘pchiligi esa talimda, savdo- da, madaniyat va sa‘atda, sog‘liqni saqlash sohalarida ishlab kelmoqda. Aholining ishsiz qatlamini kamaytirish maqsadida mamlakatimiz ko‘pgina ishlarni amalga oshirmoqda,. Ulardan kimning qurbi yetsa ularga 3-4 sotix yer maydonlarini taqsimlab bermoqda, yana ayollarimizga uyda qarasa bo‘ladigan tovuq, quyon , o‘rdak, go‘z va shu kabi hayvonlarni yetkazib bermoqda. Shu orqali ko‘pgina ishsiz aholini ish bilan taminlashga erishildi, keying yillarda ham aholini ish bilan band qilish uchun ko‘pgina ishlar rejalashtirilgan. Yurtimizda keying yillarda ham ishsiz aholini ish bilan band qilish chora belgilangan.

Xulosa va takliflar.

- xududlarning iqtisodiy resurslaridan foydalanib yangi ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi subektlarni tashkil qilish va ish o‘rinlarini yaratish lozim;
- ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratayotgan subektlarga soliqlardan, kredit olish bo‘yicha va boshqa sohalarida imtiyozlar berish lozim;
- yosh ishsiz kishilarni zamonabiy talabi ko‘p mutaxassislikka (elektr payvandchi, maaishiy tovarlarni ta‘mirlovchi va shu kabilar) qisqa ko‘rsatmalarni bepul o‘qitish lozim;
- kichik biznes bilan shug‘ullanuvchi, hamda o‘z- o‘zini ish bilan band qiluvchilarga har tamonlama ko‘maklashish zarur.

Ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida ishsizlar soni kamayadi, aholi turmushi yaxshilanadi, mamlakat iqtisodiyoti yanada mustahkamlanadi va «O‘zbekiston-2030» strategiya- sida ko‘rsatilgan marralarga albatta erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar

1. <https://lex.uz/docs/5055690?ONDATE=30.04.2023>
2. O‘zbekistonda mehnat va bandlik
3. Aholi bandligi tartibga solishning horij tajribasi
4. Aholi bandligi va real daromadlari izchilligi
5. Strategy.uz